

---

## “Inson qadri uchun”: Rishtonda 2 mingdan ziyod oilaga bug’doy tarqatilmoqda

Joriy yilgi g’alla mavsumini yuqori darajada uyushqoqlik bilan o’tkazib, ulkan xirmon uygan rishtonlik fermerlar hamda g’allachilik klaster korxonasi tomonidan umumiy hisobda 2 mingdan ziyod ehtiyojmand oilaga 318 tonnadan ortiq bug’doy, 42 ming 300 dona somon bog’lamlari tarqatilib, yana 2 ming 500 ta oilaga takroriy ekin ekish uchun yer maydonlari ajratib berilmoqda. Qurbon hayiti arafasida amalga oshirilgan ana shunday ezgu sa’y-harakatlar natijasida minglab xonadonlarga to’kin-sochinlik, rizq-ro’z va xayr-baraka kirib bordi. Bugun klaster korxonasining don saqlash omborida birvarakayiga 1 mingta oilaga bug’doy beg’araz tarqatildi va har bir mahalla uchun ajratilgan yuk mashinalari yordamida xonadonlarga eltib berildi. Shu munosabat bilan xalq oldiga fayzli dasturxon tuzalib, osh tortildi. Elimiz ardog’ida bo’lgan xushovoz san’atkorlar bobodehqonlarimiz ximmatini olqishlab, barchani davraga chorladi. “Inson qadri uchun” shiori ostida tashkillangan tadbirda tuman hokimi boshchiligidagi sektor rahbarlari so’z olib, saxovatpesha fermerlar hamda g’allachilik klasteri rahbarlarining xayrli tashabbuslarini alohida e’tirof etdilar.

- Mamlakatimizda xalqimiz hayotining yanada farovon va mazmunli bo’lishi uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilayotgani hech kimga sir emas. Inson qadri ulug’langan yurtning kelajagi ham ulug’ bo’ladi. Bugungi kunda tumanimizda bu kabi ezgu tadbirlar davom etmoqda, - dedi tuman hokimi. O’z navbatida, fuqarolar ko’rsatilayotgan g’amxo’rlik va davomli e’tibor, yurtimizdagi xalqchil islohotlar uchun samimiy minnatdorlik izhor qildilar.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2022-07-05 14:26:17